

JALOLIDDIN SAID

CHO'QQI



KITOBIM



BIRINCHI

D'z2
S21

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

JALOLIDDIN SAYID

Cho'qqi

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:

Nodir JONUZOQ,


*O'zbekiston Yozuvchilar uyushma raisining ijodiy ishlar
bo'yicha birinchi o'rinbosari*

Mas'ul muharrirlar:

Zebo MIRZAYEVA, Jontemir TOSHTEMIROV

Mazkur to'plamda she'r va shoirlik yo'llarini fe'liga xos ravishda sokinlik bilan bosib o'tayotgan ijodkorning ortiqcha shovqindan xoli xayolot tegirmoniga kuzatuv, hayrat, hatto falsafiy qarashlari suv quygan mardonavor, dadil she'rlarini o'qiysiz. Yengil-yelpi tuyg'ularni pisand qilmay, o'quvchini ham o'ta jiddiy, umuminsoniy dardlar bilan "og'rish"ga undaydi bu she'rlar. Ishonamizki, ushbu to'plam adabiyotsevarlar ko'ngliga yo'l topa oladi.

*Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib,
"Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*



© J. Sayid, 2020
© "Adabiyot", 2020

YOSH SHOIR JALOLIDDIN SAYID SHE'RLARINI O'QIB...

U So'z maydoniga o'zining oriq oti bilan kirib keladi... Yovqur tulporlarning kish-nashi-yu uloq girdobida oqqan izdihomning urhosi va bu jangga iztirob bilan boqib turgan uning ko'zlari... Va o'rtaga solim solib, "Hey, bola, senga bu maydonga yo'l bo'lsin?" deb qarab turgan kayvoni zotlar oldida "yem yemagan" otining holiga achingan U va... egasiga aybdorlarcha boshini eggan ot... Katta bir kurashning qisqa bir chizgisi:

Ot. Oriq, lekin qaltiramagan.

Odam. Jim, lekin qo'rqmagan.

Ehtimol, Vaqt uning kelganini payqamaydi ham. Vaqtning qonuni bitta: Mard maydonda bilinadi. Vaqt esa uni tan olishi uchun hali vaqt kerak. U esa Vaqtni kutib o'tirmaydi. Shunday. Borini aytadi.

*O'x, mening osmonga tutashgan boshim,
O'x, mening zaminga botgan oyog'im.*

O'zini nogahon ko'rib qolgan Odam o'zini qanday yashaydi? Masalan, yer-u osmon o'rtasida turgan ulkan odam?.. Dunyosiga sig'magan... Dunyosidan qochgani qochgan... O'ziga yashashni qanday o'rgatadi? "Qismati

fosh, ko'ngli o'zi uchun ham jumboq" bo'lgan odam uchun umr nima? Jazo yoki najot? Shoirni So'z yaratadi. Biroq shoirni yaratuvchi so'z dunyoga qarshi bo'lsa-chi? So'z – qilich. Shoir uning tig'lari ustidan yalang oyoq bilan emas, yalang qalb bilan o'tadi. Ruh bo'lib. Nafsga aylangan har bir so'zi, eng avvalo, uning o'zini kesadi.

O'x, mening sabrimga tirg'algan josus.

O'x, mening xayolim qilgan gunohlar!..

Oh... Haq aytish va ayta olmaslik dardi oldida shu Nafasga aylanadi. Oh – bu shoirning nomi. Keskir bir qilichday olov alangasida ming bir tovlanadi. Goh afsus, goh armon, goh og'riq, goh Sog'inch! "Oh!" desa-yu, bir lahzada shu borliqqa singib ketadiganday... Shu qadar chuqur istakki, shu bir tomchi zahar bir tomchi hayotday yurak tub-tublari, ildizlariga yetib, uni qutqaradiganday!..

"....Sensiz yashash qiyin, Sensiz yashash fojia", – deydi u sodiq do'stiga. Bu do'stning nomi esa Og'riq! Bu og'riq uning umriga tutash. U – Og'riq farzandi. Ota degan ulkan Vatan, yag'ri-ni yer bo'lgan Vatan oldida turgan burchi – yuraginingyukiga teng. Tovonlari shilinib, qo'llari tilinib u Cho'qqiga chiqishi shart! Orqaga yo'l yo'q! Ortiga qaytganlar, qo'rqqoqlik qilganlarni bu darada g'ajirlar yeydi. "Chiq! Sen chiqishing

shart! Tortib olmoq uchun Ularni!" ... Kimlar-
ni? Axir, she'r davomida shoir bu haqda lom-
mim demagandi-ku? Ammo... Ular – ertaga
ortidan kelguvchilar. O'zidek bu Cho'qqi ortini
ko'zlaganlar! Orzular uchun ham u Cho'qqiga
chiqishi kerak! Toki Cho'qqi ular uchun osto-
na bo'lsin. To'siq, g'ov emas! Har bir qadami
bilan o'zini yaratib borayotgan Mard timsoli-
ni hamisha ta'qib etguvchi josus – bu qo'rquv
bo'lib, uni yengishga urinayotgan Dunyo tim-
soli bu gal sharpalar shaklida sochqilanadi.
Sharpalar, qaydadir makon va zamonning
bir burchida emas, balki bani insoniyatning
ojiz ruhiyatida yashab kelayotgan Nafs. Qahr,
g'azab, kin. Uning obrazlari ko'hna mazmun-
ga yangi talqinlarni beradi. Bo'ri – yovuzlik
timsoli bo'lib emas, erkinlik ramzi, inson ruhi-
ning o'z qobig'iga sig'mayotgan ozodligi ramzi
bo'lib tasvirlanadi. Bu faqat inson qobig'imi-
kan va yoki muhit? Savol portret zahirida
soyadek tashlangan yana bir ichki portret,
obraz bor... Uning she'rlari bir qaraganda sod-
da, an'anaviy ko'rinsa-da, ancha qatlamdor.

Faqat gohi, yuragi yonib,

Jim chiqar-u tun yarmida huvv

Kimsa topmas so'qmoqqa borib

Uv tortadi, Ko'kka qarab uvv!

Tashbehlar, timsollar, majozlar, she'riy san'atlar, maktablar vaqt davomida o'rgani-ladi, o'zlashtiriladi, sayqallanadi. Yangi So'z, yangicha uslublar topiladi. Bularning bari vaqt, mutolaa jarayonida shakllanishi, bo-yishi, o'zgarishi mumkin. Ammo shoirning shoirligini belgilaydigan bir jihat bor. Yombi haqiqat. Ruhidagi sobitlik, E'tiqod, Or, Mardlik va Halollik. O'zi aytgandek, og'riq bor ekan, shoir Ruhini So'z alangasida toblayveradi.

Jaloliddin butun shoir! To'g'ri, uning ijodida ta'sirlar, taassurotlar ortidan kelgan tasvirlar, ohanglar ham yo'q emas. Lekin uning So'z ildizi yuragiday teran. O'zini ham, o'zgani ham aldamaydi. Bejamaydi. Yolg'onga qo'l bermaydi. Darvoqe, ko'pkari... So'z maydoni chetidagi oriq otli odam. Shoirni shunday ko'rdik. Shoir-lar shunday keladi. Xuddi Hakimbek uyurga uch karra qur tashlaganda ham eti qobirg'asi-ga yopishgan Boychibor chiqib kelganday... Ot – uning yuragi. Bugun u sovrinlarni olol-mas, ammo erta... uning uchishiga... hozircha bu tulpor o'z qanotlarini yashirib turganiga ishongimiz keladi.

Zebo MIRZO,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoira.

QO'RQUV

Mendan ko'z uzmagil, bo'l mudom sergak,
Meni mahkam ushla, qo'llarimdan tut.
Kimdir meni tutib turmog'i kerak,
Yo'qsa, yiqilaman, bo'laman nobud.

Assalom, Quyosh!
Qara, shamollarning vajohatiga...
O'pkamni yorgudek siqilar havo.
Yurakning ming yillik jarohatiga
Faqat ishq! Faqat Sen! Yo'q bo'lak davo.

Hech qachon qoldirma tun bilan yolg'iz,
Ko'zlarim zabt etgay, yo'qsa, zulumot.
Qismatim – toshloqqa tiralgan ildiz,
Men hayot istayman, bir tomchi hayot.

O, faqat sev meni, qo'rquvim sinsin,
Yugursin umrimning olov yo'llari.
Farishtam, o'zing ham bilmaysanki,
Sen –
Xudoning men tomon cho'zgan qo'llari!

O, bilki, bir umr qilurman qulluq,
Seni qayda ko'rsam, o'sha yon Qiblam.
Assalom, Quyosh!

IZOH

Hech qachon hech kimdan olmadik sotib
 Va yoki birovdan o'g'irlamadik.
 Baqirib-chaqirdik haq so'zin totib,
 Mayda gap bo'lmadik, ming'irlamadik.

Muloyim ko'rindi garchand chehramiz,
 Lek mudom tomirda qaynab turdi qon.
 Goh siltab uzdilar yoqa tugmamiz,
 Goh eslab qoldikki, aslimiz polvon.

Harqalay, yo'l halol, so'zimiz halol,
 Qo'l yuvmay hech qalam tutganimiz yo'q.
 Birovni tepkilab qilmadik zavol,
 Birovdan oshib ham ketganimiz yo'q.

Shukur, yashayapmiz baholi qudrat,
 Gohida biz kuldik, goh omad kuldi.
 E, asli bir chaqa hammasi...
 Faqat
 Sen mendan norozi bo'lmasang bo'ldi!

Zebo MIRZO

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Ko'zimning tubida ulg'aygan umid,
 Qo'sh kaftim ichida yig'ilgan najot,
 Qalbimning chanqog'in qondirgan tavhid,
 O'pkamni to'ldirgan musaffo hayot –
 Assalom, Quyosh!

Horg'in ruhim uzra yog'ilgan ziyo,
 Tilimga tirmashib tug'ilgan odat,
 Uyg'oq nigohlarda o'ynagan jilo,
 Senga yetmoq baxti – ulug' saodat.
 Assalom, Quyosh!

Qaldirg'och tumshuqda tashigan sunnat,
 Ariga bol bergan saxovat guli.
 Bitta iz ortidan ergashgan ummat,
 Sizga salom bo'lsin, Haqning Rasuli –
 Assalom, Quyosh!

Qay tunki, boshimda to'plasa bulut,
 Kimsasiz sahroga tashlasa-da g'am,
 O, bilki, bir umr qilurman qulluq,
 Seni qayda ko'rsam, o'sha yon Qiblam.
 Assalom, Quyosh!

Quloqdan quyilib kirgan nafasi,
 Ko'nglimda kuymanib yurgan halovat
 Yo jami borliqning Ulug' Xojasi,
 Senga hamd-u sano, senga salovat.
 Assalom, Quyosh!

Har holda, ko'zinga sanchilganda chang
 Yordamga shoshadi toza qo'llarim.
 Har holda, hamrohim qilganda nayrang,
 Oyog'im tanigay sodiq yo'llarin.

Har holda, hech yerda qolmagan yukim,
 Yelkamga olsam bas, ketaman tortib.
 Har holda, payqasa sal og'u yuqin,
 Tishlarim tilimni oladi artib.

Har holda, shuncha yil o'zni yolg'izlab,
 Qo'rquvga botgandim shu qadar chuqur.
 Har holda, yuragim qolmabdi muzlab,
 Seni sog'inyapman...
 Xudoga shukur!

* * *

Qalbimga cho'g' tushdi qaysi kun,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.
 O't oldim, kuydim men, o, butun,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.

Neniki boy berdim, gumon yo'q,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.
 Na bunda, na unda omon yo'q,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.

Har qilgan gunohim, bilarman,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.
 Yo Rabbim, men panoh tilarman,
 Kibrdan. G'arazdan. Hasaddan.



Quloqdan quyilib * * * nafasi,

Ko'ngilimda kuymanib yurgan halovat

Kaftim shishib chiqdi toshbaqa bo'lib,
Ari chaqib oldi yumshoq joyidan.

Ha, uning iniga urgan shu qo'lim,
Devor-chun qorilgan suvoq loyidan.

Men haq deb o'ylayman,

yo'qdir boshqa gap,

Bu devor meniki uzun bo'yiga.

Ari ham o'zini haq deydi, sabab –

Men daxl qilganman uning uyiga.

...Hamma haqiqatdan nolon, norozi,

Hamma bir-birini qiladi inkor.

Osmon hukmfarmo,

zamin tarozi,

Hammaning bir bo'lak Haqiqati bor!!!

Har holda, shuncha yil o'zni yolg'izlab,

Qo'rquvga botgan qadar chuqur.

Har holda, yuragim qonabdi muzlab,

Seni sog'inyapman...

Xudoga shukur!

TAQSIM

“Zav Xoz” qizi Asila,
Loyiq “qizil diplom”ga.
Yozing qaydnomasin, ha!
“Zav Xoz” shay “imtihon”ga.

Keyin yana, Shermamat,
Qanisan, beri kel-chi!
O‘zimizdan, azamat,
Onasi bizda “til”chi.

Eshik orti – zo‘r savdo,
Qizarishib yuzlari,
Navbat kutar bog‘bon va
Qorovulning qizlari.

O‘tkazarkan shu yo‘sin
Direktor o‘z “xesh”larin.
Mendan yuzini to‘sib,
Qizaradi “besh”larim.

AHVOL

Tovuq qilmoqlikni xohlaydi qo'shnim,
Ro'zg'ordan shunga ham ortmog'i mahol.
Bunisi uch-to'rtta tovuqdan kechib,
Echki bog'lamoqni qiladi xayol.

Men esa to'rt-beshta echkini boqib,
Sigir olaman deb yursam havasda,
Bir qo'shnim besh-olti sigirin sotib,
Moshin minib keldi, qarang, birpasda.

Tavba, shu ekan-da rasmi olamning,
Niyatni yaxshi qil deydi-yu Egam.
Yuragim achishar, nahot Odamning
Imkonga tobedir orzulari ham.



TABIY HOL

Qo'lingga non olsang, adashmay sira,
To'g'ri eltasan-ku og'zingga, misol.
Holbuki, og'zingni ko'rib turmaysan,
Parvo ham qilmaysan – bu tabiiy hol.

Yoki bosh og'rig'in olsin deb biroz,
Tong sahar ko'zingni ochib-ochmasdan,
Oftoba to'latib, muzdayin suvni
Qo'lingga quyasan to'g'ri, shoshmasdan.

Birov so'rab qolsa “Nega shunday” deb,
Tushuntirolmaysan ammo hech qanday.
Barin beixtiyor qilasan, xuddi
Shunday bo'lmoqligi kerak bo'lganday.

Endi bir o'ylab ko'r: “Bu alam nechun?”
Bu savol ostida armonlar qat-qat.
Birodar, ayt menga, qachon biz uchun
Tabiiy hol bo'lar yurtga muhabbat?

TO'LIQ OCHLIK

1

"Dadang kelsa, unday qilamiz,
Dadang kelsa, bunday qilamiz.

Pishiramiz eng zo'r ovqatni,
Ungacha boy bermang toqatni..."

Qishning qorli, ayozli kuni,
Lekin pisand qilmasdan buni,

Yelkasida ro'zg'or xaltasi,
Ovga ketgan uyning kattasi.

Mo'ltiraydi besh juft och nigoh,
O, ularni aldamoq – gunoh.

Ammo netsin onaizori?
Bisotida shu umid bori...

Zil ketadi goho ichidan,
Ayriladi sabr-u kuchidan.

Onaning ham joni toshmas-da,
Cho'ziladi yerga, shoshmasdan...

Ko'z oldida liq to'la xalta,
Ochga faqat taomdir dalda.

Tamshanadi ...
Huzur qilar jon,
Buncha shirin bo'lmasang – yolg'on...

2

O'rmon. Tog'lik. Diqqat, ser solib,
Ovchi borar sher izin olib...

"Uvv"illarkan izg'irin shamol,
Ming ko'chaga boshlar shum xayol:

Uch kun burun chiqqani yo'lga,
Hanuz hech ne ilashmas qo'lga.

Ne kechdiykin bolalar holi?
Og'iroyoq edi ayoli.

O't ochmasin harchand qo'shotar,
Yuk xaltasi hamon bo'sh yotar.

Qulatsa bas, shu topda, qariyb
Fil bo'lsa ham ketgay ko'tarib.

Ammo qayda undayin o'lja,
Kulgulidir hozir bu mo'ljal.



Bir parcha go'sht muammo payti,
Kim tayyorlab qo'yibdi, ayting?

O'lja topmoq istasa qay mard,
O'zi o'lja bo'lmasligi shart.

Chunki yemak xo'p taqchil onda,
Qorni och bir umi o'rmonda?..

3

Eziladi mening-da bag'rim,
Ichim kuyar goh kelib qahrim.

Kiprigimda yosh qalqiydi, oh,
Bir bandangga rahm qil, Alloh!

Ol, ko'ksimdan yuragim yulib,
Bolalarga ber, mayli, bo'lib.

Yo umrimdan, rizqimdan ajrat,
Kiyik qil-u, ovchiga uchrat...

Xoh o'tinch de, xohi yolborish,
Bilsang, o'lim – bo'sh qo'l-la borish.

Yo'qsa, bir pul bu yozgan she'rim,
O'lja bilan qaytsin-da eri!

* * *

Deysan: "O'smoq mudom tepaga
bo'lgan..."

Burningni ko'tarsang, tegar yulduzga.
Baland daraxtlarni alqaysan dildan,
Men esa...
havasim kelar ildizga.

Birovga kulishdan yiroqman, lekin
Har kim o'z yo'lida sobitqarordir.
Bunda har odamning o'z balandligi
Va o'zi intilgan osmoni bordir.



Hayot siylab kelgan bilan.
Ichimga yutilgan bir qanot, aldan,
Toshga to'liq bo'lgan ochiqda yo'l
Mushkunlar qanotlar tepaligida
Boshimni to'sib qo'ygan bo'lib...
Yo'q, menga bu g'opir kichiklik qilar,
Ko'nglimni yo'q qo'ygan bo'lib,
Kel, uka, kel, uka, kel, uka,
Dardlarim ham chiqib ketganday.
Bir xumordan chiqay!

* * *

O'x, mening osmonga tutashgan boshim,
 O'x, mening zaminga botgan oyog'im.
 O'x, mening sezilgan qismati foshim,
 O'x, mening ezilgan ko'ngil – jumbog'im.

O'x, mening ko'z yoshga sig'ingan ko'zim,
 O'x, mening berahm, qoya tishlarim.
 O'x, mening tilimga osilgan so'zim,
 O'x, mening dilimga qarshi ishlarim.

O'x, mening sochimga sepilgan afsus,
 O'x, mening tongimni bo'yagan ohlar.
 O'x, mening sabrimga tirg'algan josus,
 O'x, mening xayolim qilgan gunohlar.

O'x, deyman, yuzimni tilganda xanda,
 O'x, deyman, orqaga qochganda yo'lim.
 O'x, deyman, qarg'alar tepkilaganda
 Boshimni to'sishga yetmagan qo'lim.

O'x, desam, nolishga yo'ymang siz tag'in,
 Dunyoni yelkalab o'tadiganday.
 O'x, desam, havoga nafasim bilan
 Dardlarim ham chiqib ketadiganday.

O'xxx...

* * *

Ukam qum to'ldirib, katta bir qopni
 Ayvonga ildirdi, men berdim yordam.
 Ikki olib kelsa agar maktabdan,
 Yo yutqazib qo'ysa futbol jamoasi,
 Jimgina kelar-u mushtin tuggancha
 Qopni mushtlab-mushtlab chiqar xumor-
 dan.

Ha, bu yaxshi odat, kuzataman shod,
 Endi yettinchini tugatdi hali.

O'rgangani ma'qul, axir bu hayot
 Doim mard kelmaydi, gapning dangali.
 Xursangdligim nechun? Havasim nechun?

O'zni misol qilib olar bo'lsam tan:
 Hech qachon yutmagan mening jamoam,
 Hayot siylab keldi ikkilar bilan.

Ichimga yutilgan bu qahr, alam,
 Toshga to'lib borar yurakning qopi.

Mushtimni sindirar uraman desam,
 Men yaxshi bilaman g'azab azobin...

Yo'q, menga bu qoping kichiklik qilar,
 Ko'nglimni bir zulmat bosgan shu tobda.

Kel, uka, endi sen ko'mak bergil sal,
 Dunyoni... Dunyoni solaylik qopga.

Bir xumordan chiqay!..

DO'ST

Asli tug'ilganman sening qo'lingda,
Sening qarovingda ulg'aydim, o'sdim.
Meni yo'qlab turding yurgan yo'limda,
Meni yolg'izlatib qo'ymading, do'stim.

Gohida sen sabab to'kdim ko'z yoshi,
Goh o'zni "oh-voh"dan tiydim, uyaldim.
O', qancha xavflardan o'tmadim oshib,
Qo'l tutding, barida senga suyandim.

Ba'zan jo'ralarim ketdi dil uzib,
Qadamin qayirdi ba'zan hamshisha.
Faqat sen ketmading...
Men turdim sezib,
Faqat sen men bilan bo'lding hamisha.

Qo'lga bir zirapcha kirsam ham hatto,
Sening yordamingda bo'lgayman xalos.
Sen bor, tirishaman qilmay deb xato,
Sen bor, o'zligimni asragayman, rost.

Shamollar changidan achishgan fursat,
Ko'zimni o'yishdan to'xtatgan sensan.
Tilimni tishlashga majbur bo'lgan payt,
Uni yeb qo'yishdan to'xtatgan sensan.

Sensiz ne kechardi, bilmadim, holim,
 Oromning qadriga yetarmidim, yo'q!
 Boshimga yog'ilgan toshlarni sezmay
 Yashayverarmidim shodon, ko'ngil to'q.

Bugun mundoq o'ylab ko'rsam bor umrim,
 Hammasi, hammasi sen bilan bog'liq.
 Sensiz yashash qiyin, sensiz yashash fojia –
 OG'RIQ!

Mag'zi loyga botgani bilan,
 Iflos bo'lib qolmaydi danak.
 Mag'zin ko'rib danak haqinda
 Hukm qilmoq xatodir, demak.

Adolatni o'stirmoq bo'lsang,
 Adolat et, sochmagin qahr.
 Otaning kir ishlari uchun
 O'g'il javob bermaydi, axir.

O'Y

Mening bitta to'nim bor,
 bittagina ko'ylagim,
 Orzular esa, o'x-xo'...
 bu haqda yo'q o'ylagim.

Besh yil bo'ldi, oliygoh
 qaytaradi ortimga,
 Urib-surib kir ekan,
 chetda qolar tortingan.

Bir dehqon o'g'li edim,
 yurgan palak sug'orib,
 Onam dedi: "Shunda qol,
 bolam, poytaxt yuqori".

Men nodon-a, men qaysar,
 o'z gapimdan qolmayman.
 Yiqilaman, burnim qon,
 lek kurashdan tolmayman.

Eh, siz g'irrom jamoat,
 tirjayasiz qorin to'q.
 Bunda har ne o'rinli,
 faqat menga o'rin yo'q.

Sizning kema bo'lak-da,
siz menga qo'shilmaysiz.
Tushunmaysiz hech buni,
hech qachon tushunmaysiz.

Sen qolaver, Jontemir,
mening yondi paytavam.
Yurak siqar Toshkentda,
bas, Qarshiga qaytaman.

Bitta sigir, to'rtta qo'y,
ikki tanob yer bo'lsa,
"Diplom" siz ham yozaman,
uch-to'rt sodda she'r bo'lsa.

Bunga sira kuyinmam,
oyoq-qo'l but, bosh omon.
Qayda bo'lsa mehnatdan
rizqin topar tirik jon.

Faqat bitta o'yim bor,
faqat shul deb g'am yeyman.
Umid-la kutib turgan
dadamga nima deyman?..

CHU, HO'KIZIM

Chu, ho'kizim, chu, jondor,
 Yanchib vahm boshini,
 Aylantirgin, turma, tort
 Tegirmonning toshini...

Hosilsiz qaytdi dehqon,
 Yomg'ir bermadi, illo.
 Elda tanqis keldi don,
 Har donasi – bir tillo.

Dasht-u dala chopganing
 (Tin olmoqqa qo'ydirmas.)
 Kun uzog'i topganing
 Bir qorinni to'ydirmas.

Ne tong, ko'pga kelgan osh,
 Kim jabrini tortmaydi?
 Aka-uka, qon-qardosh
 O'z dardidan ortmaydi.

Rangi o'chgan xotinlar
 Er bag'rini tig'lagay.
 Uxlab yotgan bolasin
 O'pib-o'pib yig'lagay.

Oldda esa uzun qish,
Yarim ulus och-nahor.

"Ko'kka yetsa o'lmasmish..."
Qacho-o-on keladi bahor?

Chu, ho'kizim, chu, to'kma,
Tilab olgan oshimdir.

Aylanguchi tegirmon –
Mening umr toshimdir.

Kaftim to'shay poyingga,
Tirnalmasin tirnog'ing.

Tik tur, faqat yotma, so'ng
Gumon, yo'qsa, turmog'ing.

Bo'yninggacha kepakka
Botganingni xayol qil.

Xashak to'la og'ilda
Yotganingni xayol qil.

Qop-qop bug'doy kelganda
Qay tegirmon simirgan?
Senmasmi keng yelkang-la
Meʼnat qilib semirgan?

Netay men ham, tushimga
Tandir to'la non kirgay.

Alam qilar, non desa,
Jonim chiqar, jon kirgay.
Ochlik shunday balodir,
Qay maqomga o'ynatmas?
Ko'zing boylab, qorindan
O'zgasini o'ylatmas.

Aytgil axir, shu tobda
Qayda sendek Hotam bor.
Shafqat qilgin, o, uyda
O'sal yotgan otam bor.

Chu, ho'kizim, chu, jondor,
Men uchun bir horib ber.
Bir kaftgina donim bor,
Yolvoraman, yorib ber.

...Bilmam, buni bizga Haq
Xohlamay-xohlab bergan?
Ne ajabki, rizqim, sen -
Ho'kizga bog'lab bergan.

Chu, ho'kizim, chu, jondor...

ORZU

Yomg'ir bo'lib ko'kka yog'ilsam,
Singib ketsam bulutlariga.
Chaqmoq yanglig' takror tug'ilsam,
Yetsa onam umidlariga.

O, koinot, bepoyon nahr,
Tersam quyosh tilkalarini,
Ko'tartirib qilmasam yag'ir
Dadamning keng yelkalarini.

Umr qursam baliqdek halol,
Halqumimni kirlolmasa g'am,
Erta, mening nomimdan behol
Uzr so'rab yurmasa bolam.

Kimga kerak bundayin tovuq?
Men deb hech ko'z to'kmasa yoshni,
Bir tola oq tushmasa sochga,
...Tashlab olib ko'ksimga boshni,
Dunyosidan qochganim-qochgan.

KO'PKARI

Siz haqsiz, bu ko'pkarida
Deyolmasman: "Zotim bor".
Kuzataman xo'p, narida,
Mening oriq otim bor.

Ne qilayki, holimiz shu,
Ko'ngildan g'am ketmaydi.
Katta-katta yedirishga
Mening qurbim yetmaydi.

Qaltiragan oyoqlari
Ayirolmas uloqni.
To'q baytallar bo'kirig'i
Hurkitadi quloqni.

Tanimiz bir, jonimiz bir,
Birdir dardi, tilagi.
U ham bilar pand bermog'in
Sohibining bilagi.

So'z demaymiz, ammo gungdek
Na birovga aytamiz.
Biz har safar bir chekkadan
Jim kuzatib qaytamiz.

...Eshitilar goh tishlarin
 G'ichirlashi otimning.
 O'ylarmikin: "Isnodlarga
 Qo'ydim, - deya, - zotimni?"

Ezilaman men ham bunda
 Bitta ishga yarolmay.
 Yashayapmiz bir-birovning
 Ko'zimizga qarolmay...

BURCH

Mening sepgan donimdan to'ysa,
 Katagimda yemasdan sovuq.
 Tuxumni-chi, yot uyga qo'ysa,
 Kimga kerak bundayin tovuq?

Shu yurt tuzin totinib o'sdik,
 Panoh bo'ldi va yozdik kurtak.
 Endi bizning xizmat ham, do'stim,
 Shu yurt uchun bo'lmog'i kerak.

UNUTISH

Seni unutganman.
Ortda qolgan yo'l
Alahsib ko'rilgan bir tush misoli.

Seni unutganman.
Va'da berib mo'l,
Erta eslolmagan sarxush misoli.

Seni unutganman.
Bir dam yalt etib,
So'ng o'zin yashirgan chaqmoqdek.

Seni unutganman.
Xavf sari eltib,
Qadamlar qirqilgan so'qmoqdek.

Seni unutganman.
Guldonda oylab,
Qarovsiz sarg'aygan gul kabi.

Seni unutganman.
Erkini boylab,
Qornini to'yg'azgan qul kabi.

Seni unutganman...
Eslolmam endi,
O'tmishim – men uchun muhim qaydlarni.
Seni unutdim-ku!
Eh, sendan bo'lak
Nimasi bor edi o'sha paytlarning?

ZERIKISH

Ariqda oqqan loyqa
 Suvda cho'milib o'sdim.
 Tol shoxiga tirmashib
 Soyning yo'lini to'sdim.

Anhorlarning tiniqib
 Oqishini kuzatdim.
 Irmoqlarning hech qaytmas
 Xohishini kuzatdim.

Sho'r suvli zovurlarning
 Qamishida mol boqdim,
 Daryo otlig' vahmaning
 Haybatiga lol boqdim.

Ne tong, bugun baridan
 Charchadim, yetdi fursat.
 Yo Xudojon, kel, endi
 Menga Dengizni ko'rsat!

BO'RI ODAM

Ko'p qatori boradi ishga,
 Portfelini qo'ltiqda tutib.
 Goh metroda ko'zingiz tushgay,
 Goh bekatda turadi kutib.

Yuvoshgina tashlarkan qadam,
 Ko'rsang, hatto keladi kulging.
 Turtilmaydi tasodifan ham,
 Bir chetidan yuradi yo'lning.

Tanbeh olar gohi boshliqdan,
 Galstukni suymaydi jini.

Kim o'rgatgan?
 Balki, yoshlikdan...

O'z kasbiga ustadir, chini.

Gap sotmaydi o'tkazmoqqa vaqt,
 Choyxonaga yo'lamas asti.

Talashmaydi haqmi yo nohaq,
 Garchi alpdek kelbati, basti.

Ammo qachon so'ramang yordam,
 Yo'q demaydi, kunduzmi yo kech.

Vale, boshin ko'tarmas yerdan,
 Ko'zlarini ko'rsatmaydi hech.

Xotini bor, o'zidek sodda,
Bolalari...

Ro'zg'or otlig' musht...

Ko'p qatori, xullas, hayotda

Sokingina kechirar turmush...

Faqat gohi yuragi yonib,

Jim chiqar-u tun yarmida,

Huuvv -

Kimsa topmas so'qmoqqa borib,

"Uvv" tortadi, ko'kka qarab: "Uvv".


- Auuuuuvvv!!!

Olis o'rmonda,

Bor-yo'g'

Bugun-chi,

Necha



Har xasda

Goh jaxo

Tirik ko

Havas

* * *

Bordi-yu falon so'm olgan zar to'ning
 Bariga ozgina tegar bo'lsa gard,
 Rasvo bo'lishin ham o'ylamay qo'ling,
 Erinmay qoqilab tashlagaysan, shart.

Ammo nima uchun qizarmas beting,
 Behuzur bo'lmaysan diqqating ortib?
 Axir, loy bo'ldi-ku qalbning bir cheti,
 Nega uni darrov olmaysan artib?

* * *

Og'riq tishni sug'urib otgach,
 Biram huzur qilasan kishi.
 Barcha darding, barcha azobing
 Bo'lgan kabi shu tishning ishi.

O'h, sen meni buncha qiynading,
 Buncha berding yurakka zarba?
 Seni qalbdan yulib otgach so'ng,
 Shunday rohat qildim men...
 Tavba...

SIMYOG'OCH

Manavi simyog'och bir paytlar unib,
Baland va baquvvat qarag'ay bo'lgan.
Shu sabab, ehtimol, odamlar uni
Atayin ajratib, arralab kelgan.

Va endi qadalib yo'lning chetida,
Xizmatin o'taydi to'ldirgancha saf.
Sharafli bir mehnat tushmish chekiga,
Ming yillik umridan ortiqroq sharaf.

Xo'p...

Avval kim edi?
Olis o'rmonda,
Bor-yo'g'i belgisiz bir daraxt, xolos.
Bugun-chi, yelkasin tutgani onda
Necha jon bo'lgaydir zulmatdan xalos...

Har xasda bir hikmat tushirmish Xudo,
Goh jazo bo'lgandek taom ochlarga.
Tirik ko'zlar bilan qarasang, hatto
Havas qilish mumkin simyog'ochlarga...

CHO'QQI

(Dadamning saboqlari)

Balandroq chiq, tirmash cho'qqiga,
Barmoqlaring ketsin shilininib.
Nishon bo'lg'in toshlar o'qiga,
Tomirlarga qolgin ilinib.

Qarama lek pastga, bu qo'rquv,
Mag'lub etgay shashtingni gohi.
Maqsading ne, unutmagin, huvv
Cho'qqilarda bo'lsin nigohing.

Esda tursin, darada daydib
Bo'rilarga yem bo'lgan mazlum.
Ketar bo'lsang gar hozir qaytib,
Sen ham shunday qismatga mahkum.

Balandroq chiq, chiqishing kerak,
Tirnog'ingni toshlarga botir.
Yo'q, bu emas shunchaki ermak,
So'z bergansan, sen bunga qodir.

Bas!
O'zni tut, ko'z changini art,
Parvo qilma, dunyo qularmi?
Sen cho'qqiga yetmoqliging shart,
tortib olmoq uchun Ularni!

YUK

Mana, oddiy somon parchasin
 Bor kuch bilan otgin ilgari.
 Sarf qilarsan vaqtning qanchasin,
 Lek ucholmas to'rt qadam nari.

Yoki, ana, qiziqish uchun
 Sina buni bir kichik toshda.
 O'sha mehnat ketgay, vaqt, kuching,
 Natijasi... Bu endi boshqa.

Sen holingni bilasan-u, xas,
 Ular bilmay zo'rlar nechog'liq.
 Bu – otguchi kuchiga emas,
 Otilmishning yukiga bog'liq.



UMID

Barini yo'qotdim... Seni eslatguvchi,
 Hamma-hammasini yo'qotdim ko'zdan.
 Sen qaragan oyna, sen qalagan pechu
 Sen ishlatgan pichoq va hatto tuzdon.

Pardalarni yuldim, yig'dim gilamni,
 Sen ketgansan shuning ustidan yurib.
 Esatgandi qo'ling silagan damni,
 Eshik dastagini oldim sug'urib.

Deraza tokchasin bekor band etgan
 Gullar seni so'rdi... Va bo'ldi yomon.
 Supurging bu uydan bosh olib ketgan,
 Suratlar olingan, quvilgan javon.

Kitoblar almashdi kutubxonada,
 Olaverganidan har bet xo'rsinib.
 Seni chorlayvergach turib panada,
 Sindirdim sen suygani oromkursini.

Yotoq yangilandi.

Endi unda yo'q
 Sen bosh qo'ygan yostiq,
 sen yotgan to'shak.

Barin alishtirib bo'lar ko'nglim to'q,
Desam, uyim qoldi huvillab, bo'shab.

Barin yangiladim, so'zim so'ngida,
Senga kerak bo'lgan borki kerakni.
Dunyo yangilandi ko'zim o'ngida,
Yangilab bo'lmadi faqat Yurakni...

Otdim, deymen...

Yolg'on.

Qo'shni xonada,

Qo'yibman barining ustini yopib.

Bir kun qaytib kelib:

– Bizning u kunlar

Qani? – desang, qaydan beraman topib?!



KAYFIYAT

Qurigan yaproqdek kaftimga olib,
Yurakni ezig'ilib socholsam edi.
Ko'ksimda tomirlab ketgan adoqsiz
Dardlardan bir yoqqa qocholsam edi.

Kimsasiz orolmi, bo'lsa-yu, unda
Birovni bilmasam, birov bilmasa.
O'kirib yig'lasam Sening oldingda,
Hech kim ayb qilmasa, uyat qilmasa.

Chap yelkam og'irlab borgay tobora,
Tobora og'riqdan titrar lablarim.
Bu soqov til bilan qayerga boray?
Gaplarim ko'p, axir,
mening gaplarim.

Ay ruhim, ne bo'ldi, buncha tushkunsan?
Tilmochlik qiladi tonggi tushlarim.
Nimalar deysiz-a?
Qani tushunsam,
Oppoq ilonlarim, oppoq qushlarim.

Umrin – bir “puf” desa o'chguchi shamdek,
Bulutlar aylanar, guldurak yaqin...
Qo'rqaman, ertaga men ham Odamdek
Yashadim deyishga bo'larmi haqqim?..

TUSH

Tush ko'rdim-u tongda nogoh
 Cho'chib turdim o'rindan.
 Bir seskandim peshonamga
 Tepgan sovuq terimdan.

Emishki, keng maydon uzra
 Jang borar-u beayov.
 O'q yomg'irdek yog'ar boshdan,
 Bosib kelar yurtga yov.

Eng dahshati, shu yerda ham
 Qo'ymay taqdir qilig'in,
 Naq urushning o'chog'ida
 Otmay qoldi miltig'im.

Qo'rqqomasman aslida-ku,
 Gap ketganda or haqda,
 Ammo yovga quolsiz tik
 Borib bo'lmas ahmoqday.

Choparmishman uyalmay hech
 Maydon chetin panalab,
 Do'stlar esa qochdi deya
 Yog'dirarmish ta'nalar...

Duch kelsa deng shu lahzada
Men hukmidan qochgan qo'l,
Ne ajabki, yovga eltsa
Jangohdagi barcha yo'l.

Qaltiradi oyoqlarim,
Garchi tanim titradi,
Lek zo'r berib miltig'imni
Manglayiga tiradim.

Bir, ikki, uch... Tag'in qayta,
Tag'in qayta, iltimos.
O, Xudoyim, bittagina,
Bittagina o'q, xolos.

Qulog'imni yordi qah-qah...
Aytmoq nomus uyog'in.
Tizim bukib, shafqat tilab,
O'parmishman oyog'in...

Zo'r vahmdan ko'zim ochdim,
Kelib-kelmay hushimga.
Bir qizardim, bir so'kindim,
Qon quyilib mushtimga.


Tuflab tashla, magar, tuproq,
Bag'ringdan joy bermasdan,

Yurtga kirgan yov boshini
Shart uzmasam... Ermasman!

Tosh yog'dirgil yoki, falak,
Quyosh, yoqqil bo'g'zimni.

Bir soniya ikkilansam
Tutolmasdan ko'ksimni...

Alam qilar ekan, chin-da,
Xoh o'ng, xohi xayoling.
Yurt deb jangga kirganingda
Pand bersa gar quroling.



NOSHUKR

Bir tomonda eriydi muzlik,
 Bir tomonda cho'kib borar yer,
 Bir tomonda esa suvsizlik,
 Bir tomonda ochlik, ber ho ber.

Bir tomonda otilar vulqon,
 Bir tomonda tarqaydi vabo.
 Bir tomonda o't olar o'rmon,
 Bir tomonda urushdek balo...

Boq, noshukur, ne taxlit zamon,
 Boqqil, axir, dunyo ne ko'yda.
 Sen-chi, ishdan qaytasan omon
 Va tinchgina uxlaysan uyda.

Yer chopasan, ekasan ko'chat,
 Bog' hovlingni hosilin yig'ib.
 Kengashasan – to'kin kuz mo'ljal,
 To'y qilasan, ko'nglingga sig'ib.

Deysan so'g'in: chorlar huvv jo'ram,
 Bormasam gar, bo'ladi xafa.
 Besh bolangni qo'yib xotirjam,
 Uydan olis qilasan safar.

Birov olmas yoqangdan kelib,
 Yo yog'dirmas o'qotarlar do'l.
 Qurbing bormi, chopaver yelib,
 Kimsa to'smas,
 to'rt tomoning yo'l...

Shundoq yurtida yashaysan, tushun,
 Gul-u giyoh atrin taratgan.
 Axir, shukr etmog'ing uchun
 Yana nima qilsin Yaratgan?

QOIDA

Chapaqaylar davrasiga tushib qoldi u,
 Qishloq chetidagi chinor tagida.
 Turishar chap qo'lda non, yuzda kulgu,
 So'z quyishib og'izning chap burchagidan...

Xohlamay boshida, dedi:

"Bu – xato!"

Tirjaydilar:

Ha, shundaymi?

Kiriting esin!

U kimligin tushuntirib bergunicha to,

Sezdirmasdan o'ng qo'lini oldilar kesib.

CHO'PON BOBO O'GITI

Ko'z yoshda ma'ni yo'q, dod-voydan foyda,
Qochmoq, bu – muqarrar halokat erur.
Qashqirlar izillab izg'igan joyda
Omonlik istasang, tur, o'rningdan tur.

Ular bilmaydilar baribir shafqat,
Yorib tashlayverar odammi, qo'ymi.
Ko'zingda qo'rquvni ko'rsatma faqat,
To joning bor ekan, tayog'ing qo'yma.

Qo'llaringni g'ajib tishlasalar, tur,
Oyog'ingni chaynab tashlasalar, tur.
Bo'g'zingga sirtmog'in solgan bo'lsa ham,
Agarki bir lahzang qolgan bo'lsa ham.

Toki tik tutishga boshing bor ekan,
Toki urib turar ko'ksingdagi musht,
Qonxo'r, o'laksaxo'r, quzg'unlarga tan
Bermagin, qaytmagin, urush och, urush!

Joningni ayama, (necha jon berdik)
Zamin kaftin yoyar, magar yiqilsang.
Haq uchun, or uchun jang qilib, erdek
O'lmoq ham eng yuksak baxt erur, bilsang...

ZULMATDAGI SAROB

Sharpalar yuribdi, sharpalar,
Soyadek aylanib tegramda.
(Ko'zimda titilgan pardalar)
Sirpanchiq uchishib yelkamda,
Sharpalar yuribdi, sharpalar.

Odamga o'xshaydi yurishi,
Oyog'i bor, vale, izi yo'q.
Tanimog bo'laman tirishib,
Ajabki, hech birin yuzi yo'q.
Sharpalar yurubdi, sharpalar.

Ortimdan ergashar beizn,
Ne istar, bilmam, ne da'voda.
Tutmoqqa chog'langum qo'l cho'zib...
Tutunmi, tumanmi, havoda
Sharpalar yuribdi, sharpalar.

Goh do'stdek uyqumni qochirib,
Goh esa ko'ringay dushmandek.
Tushlarim eshigi ochilib,
O'ngimga to'kilib tushgandek
Sharpalar yuribdi, sharpalar.

Yo Xudo, degayman, behuzur
 Solma bu so'nggi yo'q savashga.
 Toqatim yetmaydi, bir umr
 Sharpalar ichinda yashashga...
 Sharpalar yuribdi, sharpalar!

HUSHYORLIK

Pardalarni oling derazalardan,
 Qalinroq to'shalsin ko'rpacha o'rni.
 Toki sal bo'y cho'zsak o'tirgan yerdan,
 Hovlimiz bemalol tursin ko'rinib.

G'aflatning tuhfası ortiqdur bizga,
 Poylab qochmoq yetar eski darchadan.
 Endi hushyor bo'lmoq lozim har izga:
 Qani, kim o'tmoqda bizning ko'chadan?

OSHIQLIK

Muhabbat deb yirtmadim og'iz,
Sevgi deya chekmadim oh-voh.
Har gul uchun bukmadim-u tiz,
Har quchoqdan topmadim panoh.

Har nigohga xat yozib bedor,
Oyga boqib ko'rmadim husnin.
Tun yarmida oshmadim devor,
Chinorlarda qolmadi ismim.

Har quloqqa qo'ymadim belgi,
Qo'l cho'zmadim har qiyiq yengga...
Ammo mening ko'nglimga sevgi
Begona deb kim aytdi senga?

JAVOB

Yo'llarda yuraman uzoq va yaqin,
Yo'llarga dardimni kuyib so'zlayman.
Yolg'izlik izma-iz etadi ta'qib,
Yo'llarda adashib seni izlayman.

Tog'larga chiqaman, balki, u aytar,
Balki, shu tog'larda sening izlaring.
Hayqirsam: "Javob ber", aks-sado qaytar:
"Javob ber", "Javob ber", "Qaydin izlading?"

Ba'zan sahrolarda tutashgay umid...
Tomog'im quruqshab, labim yorilgay.
Madorim quriydi, ingrayman: "Senga,
Nahot sahrolardan o'tib borilgay?"

Yurtma-yurt kezaman, ovulma-ovul,
Odamlar kulishar: "Qiziq so'zlaysan".
Ko'zlari ko'ksimga uradi hovur:
"Kimni izlayapsan?", "Nega izlaysan?"

Rost javob berguchi bormi olamda?
Toqatim toq bo'lar hasratim aytib,
Alamim cho'qqiga chiqqani damda,
Dunyodan o'pkalab turganim payti.

Bir darvesh uchradi nogahon, haqir,
Men undan bir najot kutmadim sira.
Ul esa qoshimga keldi-yu faqir
So'z qotdi: "O'zingdan, o'zingdan so'ra..."

Qara, nodonlikning chegarasi yo'q,
Tentirab o'zimni har yon uribman.
Axir, sen yurakda ekansan shundoq,
Men-chi, tashqaridan izlab yuribman.

QORBO'RON

Qor kun bo'yi yog'di gupillab,
Mayin kafti siypalab yuzni.
Yodga soldi yana sen – gul lab,
Shirin nigoh, yoqimli ko'zni.

Izing ko'mib izillab turgan
Bu qor sendan so'nggi darakmi?
Tushsin deya birpas hovurdan,
Men qorbo'ron qildim yurakni.

HAVAS

Balet raqqosasi, o, nozik ko'ngil,
 Havasim keladi sizlarga juda.
 Butun bir tanani ko'tarib yengil,
 Yurasiz ignaday oyoq uchida.

Sira sas chiqmaydi qadamingizdan,
 Qadamlar ko'ksingiz yaralaganmi?
 O, tovush degani mana bor bizda,
 Yursak, qaratamiz qaramaganni.

Par kabi havoda suzar ekansiz,
 Hech vahm olmasmi ko'nglingiz chulg'ab.
 Ne holki, tikilib turmas ekan ko'z,
 Yondan o'tsangiz ham bo'lmaydi ilg'ab.

Biz shundoq, yiqilmay yurolsak zo'r gap,
 Siz kabi pirpirab turmoq qayoqda.
 Og'riqdan bukilgan gavgani tiklab
 Yurolmay qolamiz goho oyoqda...

Men havas qilaman va beraman tan,
 Yo'q, men ham xohlardim, xohlardim juda,
 Siz kabi sezdirmay dardlar oldidan
 O'tib ketolsaydim oyoq uchida...

KICKINA O DAM

Biz kichkina odammiz,
So'zimiz kichkinadir.
Kichik tishga loyiq rizq,
Ro'zimiz kichkinadir.

Sizday buyuk odamni
Sig'dirolmay o'ziga,
Ko'rmay qolsa, ayb etmang,
Ko'zimiz kichkinadir.

Siz – chopag'on, bahs etmoq
Chumchuqning halokati.
Oyog'imiz kaltaki,
Izimiz kichkinadir.

Hisob bergay beayov,
Xato qilsa qizarib.
Mushtimiz katta bizning,
Yuzimiz kichkinadir.

Tashvish qilmang, siz baland,
Bu maydonda biz kimmiz?
Soyamiz katta, xolos,
O'zimiz kichkinadir.

G'ALATI ISYON

Balet Ikki oyoq, bu yaxshi,
 Havas Bir-birini tortadi.
 Butun Ikki qo'l ham qarashib,
 Yuras Yukni yengil ortadi.

Sira sa Ikki quloq degani
 Qadar Ogohlikka da'vatdir.
 O, tov Ikkita ko'z ekani –
 Yursa Ikki dunyo hayratdir.

Par ka Ikkita lab, o, buning
 Hech Hikmati ko'p, ishi ko'p.
 Ne ho Ikki jag'dir, lek uning
 Yonda Bahamjihat tishi ko'p...

Biz sh Bari durust, Xudojon,
 Siz ka Bari uchun shukrim bor.
 Og'riq Faqat so'rsang, bitta jon
 Yuroh Hamda bitta fikrim bor:

Men b Sen-ku saxiysan, bu chin,
 Yo'q, Kim u qaramlik qilar.
 Siz ka Ikki qarich til uchun
 O'tib Bitta bosh kamlik qilar.

* * *

Ariqning girdida o'sgan daraxtlar
 Suvga tashna bo'lib tursa, ne deysan?
 Bir umr orziqib kutganing – baxtlar
 Har tun tushlaringga kirsan, ne deysan?

Ne deysan, ilonning izidek yo'llar,
 Nigohing panalab qochsa olisga,
 Bo'yningga sirtmoqdek ilingan yillar
 Har qadam tortilsa asta-ohista?

Ko'zingdan o'g'irlab qo'yib uyquni,
 Tunlar alla aytsa chirildoq chalib,
 Yuzingda yugurib yurgan tuyg'uning
 Nomin ham tuzukroq bilmasang hali.

Ko'klamda ko'pirib oqqan anhordek
 Ko'nglingdan to'kilib-toshsa hislaring,
 Gul bo'yi dimog'in tutgan xumordek
 Poyingga chalkashib ketsa izlaring?

Nima ham deysan-a, nima ham derding?
 Xayoling qizartib qirmizi labi,
 Bir quruq umidga umringni berding,
 Sahroda suv kutgan daraxtlar kabi...

YOMG'IR

Shamol bulutlarin haydadi ko'kka,
Tog'larning nidosi yetdi-ku oxir.
Lalmikor tepalar tushgancha cho'kka,
Qirq yil sajda qildi: "Yomg'ir ber, yomg'ir!"

Ini bo'shab qoldi chumolilarning,
Osmonga qarasa, qil bo'yni og'rir.
Tuproqni tirmalab qildi qaysarlik:
"Tepaga yomg'ir ber, Xudoyim, yomg'ir!"

Ochni erta(k) bilan aldamoq,
Qaydam?
Qiltiriq o'g'lini o'ylarkan og'ir,
Silkinib-silkinib yig'ladi Odam:
"Jonim qurbon bo'lsin, yomg'ir ber, yomg'ir!"

Nihoyat, yaratgan etdi-ku nasib,
Bulutlar oyog'in ildi tepaga.
O, yomg'ir, yog' endi, yog'aver bosib,
Bunda qirq yil oldin urug' sepilgan.

OLDI-BERDI

O't bermasang, sut qayda,
 Sigir to'ymas havodan.
 Sarf etmasang, hech foyda
 Ololmayсан savdodan.
 Don bermasang tovuqqa,
 Tortiq qilmaydi tuxum.
 Oldirmasang sovuqqa,
 Dard senga qilmas zug'um.
 Suv quymasang, quruq yer
 Suvog'ingga loy bo'lmas.
 Ko'ngil, desang, ko'ngil ber,
 Quruq so'zga roy bo'lmas.
 Bir kun yedirar yegan,
 Chap berib qololmaydi.
 Bir qo'ling bermas ekan,
 Bir qo'ling ololmaydi.
 Boq, urug' sepmay kesak
 Bag'ridan kim rizq terdi?
 Bu dunyo – bozor, desak,
 Bu hayot – oldi-berdi!

RASSOM KO'Z

Bahs etasiz: "Hayot oq-qora",
 Xuddi shaxmat taxtasi kabi.
 Tan olmaysiz, bu olam aro
 Bir siz haqsiz, bekor yot gapi.

Oyoq tirab o'tkazasiz so'z,
 Nodon davra o'zin tashlaydi.
 So'ng ertaga yana qancha ko'z
 Oq va qora ko'ra boshlaydi.

Hayot sho'rlik, hayot bechora,
 Jim kuzatar bu xil janglarni.
 Siz ataysiz uni oq-qora,
 Ko'rolmasdan boshqa ranglarni.


Axir, maysa yashil, osmon ko'k,
 Sariq yog'du sochar shamlari.
 Umrimizga berib oro, ko'rk,
 Bordir qancha rangin damlari.

Bilmaysizki, hayot saqlar kin,
 Sizning ishonch borarkan ortib.
 Olib qo'yar alamda bir kun
 Ko'zlaringiz rangini tortib.

Bas! To'xtating bekorchi bahsin,
 Sobit qolib ammo jur'atda.
 Qarang, hayot ko'rsatar aksin,
 Uning ko'zi chizgan Suratda!

O'rgimchakning to'rida
 Ko'rdim-u bir pashshani.
 Rahmim kelib sho'rlikka
 Shartta olib tashladim.

O'z ishimdan shod tursam,
 Ko'kni buzdi nolasi,
 Qaydin bilay ochligin
 O'rgimchakning bolasi.



KALTAKESAK

Buncha maydalashding yerga yopishib,
Tobora tuproqqa kirib boryapsan.
It quvgan mushukdek "urra" qochishing...
Yuraksiz qovjirab, qurib boryapsan.

Zero, sen kengliklar bag'rin to'ldirib,
Osmon qitig'iga tegib yurgan bosh,
Tog'larni to'ntarar quvvating turib,
Buncha yuvvosh tortding, bu qadar yuvvosh?

Xo'sh, nega, javob ber, nimaga jimsan?
Nega berkinmoqqa izlaysan pana?
Yoki unutdingmi, axir, sen kimsan?
Dinozavrlarning avlodisan-a!

Axir, maysa yashil, osmon ko'k,
Sariq yog'du sochar shamlari.
Umrimizga belag'ga, ko'rk,
Bordir qancha rangin damlari.

Bilmaysizki, hayot saqlar kin,
Sizning ishonch borarkan ortib.
Olib qo'yar alamda bir kun
Ko'zlaringiz rangini tortib.

KUZ

Nimadir ezadi ruhimni tag'in,
 Nimadir yoprilib kelar ko'zimga.
 Erinib kezaman aqrab chorbog'in,
 Bu yo'llar...

Kimlarni solar esimga?

Nima u?

Bilmasman, ko'ngil talabi.

Nima u?!

Qarayman, atrofim ro'yo.

Bobomning eskirgan surati kabi

Sarg'ayib o'tirar qarshimda Dunyo!

Chiqolmasin hech kim boylab qo'limizni,
 Poyimizdan yulib otdik yo'limizni.

Bizga bir Ishq kerak edi, birgina Ishq,
 Boshimizga tushsa shul deb, xo'p, necha ish.

Dunyo kuldi qarab rang-u ro'yimizga,
 Kiritmadik ammo hargiz o'yimizga.


Shodlandilar, ko'ksimizni ulib-tilib,
 Ulab-ulab sitam chekdik, nash'a qilib.

Umrimizning yarmi o'tdi shu sirtmoqda,
 Ne tong, samo, Ko'ngil sendan Balandroqda!

* * *

Adashib bir kelib qoldik-da, dunyo,
Bir bora qildik shu nomaqbul ishni.
Buncha xo'rlayverma, shafqat qilgin, o,
So'ng qaytib bezovta qilmaymiz, xo'shmi?

Sen ham ortig'ini etmagin talab,
Ko'zimiz yetgancha tanidik, bildik.
Biz axir shu yirtiq kissani kovlab,
Achchiqmi-shirinmi, xaridga keldik...



DA'VO

Amirga

Dunyo chiqdi ko'zin suzib qarshimizga,
Qaramadik, dunyosi ne bo'пти bizga?

Samo tushdi poyimizga yulduz sochib,
Yo'q, dedik, yo'q, somon yo'ldan ketdik qochib.

Oq badanin ko'z-ko'zlab oy, izimizni
Topib keldi, o'yib berdik ko'zimizni.

Hurlar o'tdi jilva qilib, isyon bo'ylik,
Dimog'imiz alaf birlan bo'g'ib qo'ydik.

Chiqolmasin hech kim boylab qo'limizni,
Poyimizdan yulib otdik yo'limizni.

Bizga bir Ishq kerak edi, birgina Ishq,
Boshimizga tushsa shul deb, xo'p, necha ish.


Dunyo kuldi qarab rang-u ro'yimizga,
Kiritmadik ammo hargiz o'yimizga.

Shodlandilar, ko'ksimizni tilib-tilib,
Ulab-ulab sitam chekdik, nash'a qilib.

Umrimizning yarmi o'tdi shu sirtmoqda,
Ne tong, samo, Ko'ngil sendan Balandroqda!

Hali yomg'ir yog'ib berar, hali qor,
 Bulutdan arimas aprel osmoni.
 Qunishib qarayman, nahot shu bahor?
 Boshimda qalpog'-u ustda chophonim.

Bu dunyo janghidek qolgan qamalda,
 Tabiat teskari kuyin chaladi.
 Ayni soya izlab qochar mahalda
 Quyoshni sog'inib yursang, g'alati...



YOLG'IZLIK

Sen ham yo'qsan endi yonimda,
Endi meni kutmaydi hech kim.
Bir ko'ngilga muhtoj onimda
Qo'llarini tutmaydi hech kim.

Kirgim kelmas uyga ham, unda
Och yuhodek bo'm-bo'sh xonalar.
Siqib kelar to'rt devor zimdan,
Yog'diradi so'zsiz ta'nalar.

Katta hovli, katta daraxtlar,
Jindekkina baxtga o'tmaydi.
Kunlar o'tar, haftalar o'tar,
Bir men o'tmam, vaqt-da o'tmaydi.

Yorib kelar alam bo'g'zimni,
To'rt yonimda alanga o'sar.
Keng dunyoda yolg'iz o'zimmi?
Kechalari vahima bosar.

Ezilaman ko'chalar kezib,
Ko'zim bilan tashlayman qadam.
Yolg'izligin turganda sezib,
Qo'rqqoq bo'lib qolarkan odam.

OYOQLAR

Siz duch kelarkansiz ba'zan yo'limda,
(Ko'ksimga urgandek o'tmas pichoqni.)
Olqish yog'dirasiz ikki qo'limga,
Yetaklab kelarkan ikkita tog'ni.

Siz duch kelarkansiz ba'zan yo'l yarmi,
So'zsiz borar chog'im Haqqa yukinib,
Olqishga ko'masiz yelkalarimni,
Ko'tarib kelarkan osmon yukini.

Nahot siz bilmaysiz? Yoki o'zingiz
Chog'laysiz, uydrib qovoqlarimni.
Nega hech ko'rmaydi, sinchi ko'zingiz
Loyga botib ketgan oyoqlarimni.



SARHISOB

Fursat charxpalakdek umrimdan olib,
Yana bir yilimni tashladi ortga...
Qancha kurashlardan chiqoldim g'olib,
Qanchasin boy berdim, kimsan – Hayotga!

Nelarni unutdim, unuta oldim,
Ko'nglim xalos bo'ldi ortiqcha yukdan?
Nelarni naqqoshdek yodimga soldi,
Shu naqshlar tufayli, balki, tirikman?

Ko'p narsa o'zgardi, rostini aytsam,
Ko'p narsa o'zgarmay qoldi, bu ham rost.
Gohida chorasiz yo'limdan qaytsam,
Gohida yo'l topdim qayta turib, soz.

Muhimi, dars olib kamalaklardan,
Ikki ters qirg'oqqa ko'prik bo'lishni,
Yashashni o'rgandim kapalaklardan,
Chinorlardan esa qanday O'lishni...

Hech narsa qolmagay dunyoda qoyim,
Faqat yasholsang bas, har daming bayram.
O'tgan yillar uchun shukur, Xudoyim,
Xayrli qilgaysan kelgusini ham!

* * *

Birov senga tarsaki ursa,
Mushting bilan qaytargin javob.
Birov seni yelkangdan turtisa,
Surib tashla yoningdan shu tob.

Qaytma, bo'lsang magar chindan haq,
Mardni mudom qo'llagay maydon.
Ammo ezma hech kimni nohaq,
G'irrom bo'lma, vale, hech qachon....

Shudir asli hayotning yuzi,
Yashay desang qo'rquvdan kechg'in.
Zo'rligingni turmasa sezib,
Tan olmaydi, bilib qo'y, hech kim!



* * * *

Taqdirning hukmiga topshirdim boshni,
Nima bo'lsa bo'lar.

Ha, endi farqsiz.

Keraksiz zarblardan ezilgan doshni,
Xudo ham jimgina kuzatar, sharhsiz.

Goh qadam sanayman, goh kun sanayman,
Bir dam to'xtamoqqa yetmagay kuchim.
O'zanga quyilgan suvman.

Qarayman –
So'ngi ayon yo'lda o'ylanmoq nechun?

Yelkamni bo'shatdim...

Chopdik, shamollar!

Endi yiqilmoq ham qo'rqinchli emas.

Faqat ko'zlarimdan oqqan savollar

Yurakni uyg'otib yubormasa bas!

Taqdirning hukmiga topshirdim boshni...

* * * *

Bunda gul bulbul uchun,
Zanjir yolg'iz qul uchun.

Oy tunga nikohlangan,
Quyosh va kun bog'langan.

Yomg'ir yerning ozig'i,
Otning tayin qozig'i.

Shundoq taqsim azaldan, –
Shifo izlash kasaldan.

Boshqa so'z yo'q, tamom, bas!
...Bari uncha yomonmas.


Faqat g'ashim qo'zg'ar, chin,
(Nega, bilmam sirini)
Qayoqdagi it uchun
Qovunning eng shirini.

QADAM

Dadam ishga qatnar har kun ertalab,
 Tuproq ko'chalarda qoldirgancha iz.
 Keyin men chiqaman ortlaridan va
 O'zimning izimni qo'yaman so'zsiz.

So'ng kunlar o'tadi, so'ng kimlar o'tar,
 Ey dunyo, ammo sen bilib qo'y shuni –
 Dadam boshlab bergan yo'l davomida
 O'g'limning izlari tushar bir kuni.

Demakki, bu yo'ldan uzilmas qadam!



MUNDARIJA

Zebo Mirzo. Yosh shoir Jaloliddin Sayid she'rlarini o'qib...	3
Qo'rquv.....	7
Izoh.....	8
"Ko'zimning tubida ulg'aygan umid..."	9
"Har holda..."	10
"Qalbimga cho'g' tushdi qaysi kun..."	11
"Kaftim shishib chiqdi toshbaqa bo'lib..."	12
Taqsim.....	13
Ahvol.....	14
Tabiiy hol.....	15
Ochlik.....	16
"Deysan..."	19
"O'x..."	20
"Ukam qum to'ldirib, katta bir qopni..."	21
Do'st.....	22
"Mag'zi loyga botgani bilan..."	23
O'y.....	24
Chu, ho'kizim.....	26
Orzu.....	29
Ko'pkari.....	30
Burch.....	31
Unutish.....	32
Zerikish.....	33
Bo'ri odam.....	34
"Bordi-yu falon so'm olgan zar to'ning..."	36
"Og'riq tishni sug'urib otgach..."	36
Simyog'och.....	37
Cho'qqi.....	38
Yuk.....	39
Umid.....	40
Kayfiyat.....	42
Tush.....	43

Noshukr.....	46
Qoida.....	47
Cho'pon bobo o'giti.....	48
Zulmatdagi sarob.....	49
Hushyorlik.....	50
Oshiqlik.....	51
Javob.....	52
Qorbo'ron.....	53
Havas.....	54
Kichkina odam.....	55
G'alati isyon.....	56
"Ariqning girdida o'sgan daraxtlar...".....	57
Yomg'ir.....	58
Oldi-berdi.....	59
Rassom ko'z.....	60
O'rgimchakning to'rida.....	61
Kaltakesak.....	62
Kuz.....	63
"Adashib bir kelib qoldik-da, dunyo...".....	64
Da'vo.....	65
"Hali yomg'ir yog'ib berar, hali qor...".....	66
Yolg'izlik.....	67
Oyoqlar.....	68
Sarhisob.....	69
"Birov senga tarsaki ursa...".....	70
"Taqdirning hukmiga topshirdim boshni...".....	71
"Bunda gul bulbul uchun...".....	72
Qadam.....	73

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

S 21

S 21 Sayid, Jaloliddin.

Cho'qqi [matn]: *she'rlar* / J.Sayid.

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2020. – 76 b.

Adabiy-badiiy nashr

JALOLIDDIN SAYID

CHO'QQI

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

“ADABIYOT NASHRIYOTI” MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,5.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №381.

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



JALOLIDDIN SAID

CHO'QQI

Jaloliddin Said 1990-yil 26-sentyabrda Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman Komilon qishlog'ida tug'ilgan. Maymanoq kasb-hunar kollejining Sport faoliyati yo'nalishini tamomlagan. She'rlari "Daryo", "Posbon", "Sanduvoch" gazetalari va "Sohibqiron yulduzi", "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida e'lon qilingan.

"ADABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6781-1-8



9 789943 678118